



INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Saidkulov Nuriddin Akramkulovich

Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10258705>

ARTICLE INFO

Received: 25th November 2023

Accepted: 29th November 2023

Online: 30th November 2023

KEY WORDS

Inson kapitali, intellektual kapital, Develormentin Transition Economics (Germaniya), Harvard University (AQSh), Wageningen Universityand Research Center (Niderlandiya), Johannes Kepler University Linz (Avstriya).

ABSTRACT

Ushbu maqola inson kapitalini, uning mazmun-mohiyati va jamiyat taraqqiyotidagi o'rne, inson kapitalini o'rganilganlik darajasi, inson kapitaliga ta'sir qiluvchi omillar va xalqaro maydonda inson kapitaliga doir tadqiqot markazlari kabi bir qator masalalarga bag'ishlangan.

Jahonda yuz berayotgan global o'zgarishlar insonlarning farovon hayotini ta'minlash, ularning intellekti, tafakkuri, ehtiyoj va manfaatlarini ro'yobga chiqarishga bo'lgan davlat siyosatini samarali yo'lga qo'yishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda dunyo bo'ylab aholi turmush darajasini oshirish uchun inson kapitalini tatbiq etish bo'yicha turli metodologik yondashuvlar vujudga kelayotganligi, barqarorlikni ta'minlash borasida inson kapitalini tadqiq etishda nafaqat umume'tirof etilgan yondashuvlar, balki har qanday mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va madaniy xususiyatlarini ifoda etadigan tamoyillarni qo'llash muammosi ham ustuvor masalalar sirasiga kirib bormoqda. Bu borada amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar o'tgan chorak asr davomida yanada takomillashib, zamonaviy sharoitlarda inson kapitali hodisasini tadqiq etish zarurati dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jamiyat ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy barqarorligini ta'minlashda inson kapitalini rivojlantirish muammolarini o'rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan Kembrij universiteti, Osiyoda madaniyat, dinlar va siyosat maktabi (Angliya), Develormentin Transition Economics (Germaniya), Harvard University (AQSh), Wageningen Universityand Research Center (Niderlandiya), Johannes Kepler University Linz (Avstriya), Korea Electronics Technology Institute (Koreya) kabi nufuzli ilmiy tadqiqot markazlarida jamiyat xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashda inson kapitalini ilmiy jihatdan yoritish va tadqiq qilish ko'lamini aniqlashga alohida e'tibor qaratilgan. Demak, aytish mumkinki, boshqa sohalar qatori jahon siyosatshunoslik fani tizimida rejalashtirilayotgan ilmiy tadqiqot maqsadlari, usullari va natijalarini O'zbekistonda



inson kapitalini rivoji kelajakda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda o'z samarasini beradi. Ushbu muammolarni o'rganish uchun "aqliy markazlar", "xalqaro reyting agentliklari" tomonidan ishlab chiqilgan vazifalarni jamiyat hayotiga tadbqiq qilish muhim ahamiyatga ega.

Jamiyat ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy barqarorligini ta'minlashda inson kapitalini rivojlantirishga oid olib borilgan tadqiqotlarda barqarorlikni ta'minlash sharoitida davlat va jamiyat qurilishini tubdan isloh qilish, globallashuv va ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashda inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha konsepsiyalar ishlab chiqilgan (Noshirlar bilan munozara qilish Gellap instituti – AQSh, Frankfurt dunyo tadqiqotlari instituti, Fuqarolik jamiyati ilmiy tadqiqotlari Markazi, Germaniya); jamiyat barqarorligini ta'minlashda iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning muhim jihatlariga oid chiziqli modellar yaratilgan (Oksford universiteti xalqaro tadqiqotlar Markazi - Angliya), mamlakatlarni rivojlantirishda inson kapitaliga doir islohotlarni jadallashtirish tamoyillari ishlab chiqilgan (Markaziy Osiyo ilmiy tadqiqotlari Markazi, Atrof-muhitni tadqiq qilish va muhofaza qilish markazi – AQSh), jamiyat va davlat hayotining demokratik asoslarini o'rnatish va aholi siyosiy faolligining o'sish dinamikasiga doir taklif va tavsiyalar berilgan.

Dunyoda barqarorlikni ta'minlashda inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda: barqarorlik, jamiyat barqarorligi, barqaror taraqqiyot, inson kapitali, ijtimoiy kapital va intellektual kapital tushunchalarining genezisi, zamonaviy harakat mexanizmi, siyosiy maqsadlari, ijtimoiy va xalqaro munosabatlarga ta'siri, ularni ta'minlash va rivojlantirishga doir rivojlangan davlatlar tajribasi, ularning namoyon bo'lishi, u bilan bog'liq ma'naviy, g'oyaviy – mafkuraviy muammolar genezisi va klassifikatsiyasi ochib berilmoqda. Inson kapitalini ma'naviy negizi sifatida demokratik qadriyatlar va insonparvarlik g'oyalarini ijtimoiy hayotimizga keng tatbiq etishni takomillashtirish borasida jumladan, quyidagi: mamlakat taraqqiyotining hozirgi bosqichi nafaqat inson kapitalini rivojlantirishni ta'minlaydigan, balki fuqarolarning o'zlari uchun haqiqiy imkoniyat yaratadigan eng muhim ijtimoiy va siyosiy institutlar sifatida fuqarolik jamiyati va huquqiy-ijtimoiy davlatni shakllantirish muammosi; globallashuv sharoitida demokratiya va inson kapitalini o'rganishning konseptual asoslarini ishlab chiqish zarurligi to'g'risida savol tug'ilishi inson kapitalini o'rganishda fanlararo yondashuvning shakllanishiga va ushbu sohadagi ilmiy bilimlarning integratsiallasuvi; inson kapitali va uning shakllanishi to'g'risidagi nazariylarning bugungi kundagi ahamiyati bilan bog'liq ilmiy muammolar ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

Inson kapitali g'oyasi ilmiy muamalarda qo'llanilishi jihatidan uzoq ildizlarga borib taqaladi. Inson kapitali tushunchasi birinchi marta bilvosita Uilyam Petti tomonidan qo'llanilgan bo'lib, uning fikriga ko'ra inson kapitalining sinonimi "mehnat", deb hisoblash mumkin.

Kerakli narsa - ham shaxsiy, ham milliy boylikning elementi. Mehnat iqtisodiy jihatdan bu qiymat va xarajatlarga ega bo'lgan ishlab chiqarish elementidir. Chunki o'limlar va urushlar qiymat yo'qotilishiga va shu bilan birga qo'shimcha xarajatlarga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, Petti urushda yo'qolgan o'lim va hayotning qiymatini hisoblab chiqdi va u kapitalni makro ma'noda bashorat qilgan.

Petti singari mehnatga iqtisodiy qiymat sifatida qaraydigan Adam Smit, kapitalni jismoniy va insoniy deb ikkiga ajratdi; inson kapitali, shuningdek jismoniy kapital qimmat



mashina va jihozlarga, ta'limga kiritilgan sarmoya bilan birga, uni sarmoyaga qiyoslagan. Biroq, inson kapitali jismoniy kapitaldan farq qiladi. Cheksiz umr ko'rish, kasallik va tushkun kayfiyat kabi inson omillari tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan unumdorlikdagi o'zgarishlardir. Smit; ta'lim, o'qitish yoki shogirdlik davrida olingan ko'nikmalar uchun jismoniy shaxslar uchun to'lanadigan xarajatlar va bu qobiliyatlar shaxs va jamiyat uchun kapitalni tashkil qiladi. Smit va Pettining fikricha, inson kapitali qiymat ifodasidir. Ammo, u ham noaniqliklarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun, inson hayoti bilan bog'liq hamma narsa Barcha turdagi noaniqlik xarajat elementi bo'lib, uni odamlar va iqtisodiyot uchun oldindan aytish qiyin.

Smit va Petti singari, inson kapitali iqtisodiy qiymat sifatida qaraladi. Farr uni sharhlar ekan, inson kapitalining pul qiymatini davlat moliyasi nuqtai nazaridan hisoblab chiqdi. Farr fikricha Britaniya soliq tizimidagi inson kapitali bu soliqqa tortiladigan qiymatdir. Kiker Farrning hisob-kitoblariga aniqlik kiritdi. Uning ta'kidlashicha, bu ilmiy uslubga muvofiq birinchi tadqiqotdir. Ammo Kiker, Farr kabi odamlarni kapital deb hisoblashlarni, soliqqa tortilishi kerakligi haqidagi fikrni tanqid qildi va mulk solig'ini to'lashga majbur qilish salbiy oqibatlariga olib kelishini aytib, ko'rib chiqilayotgan yondashuv konsepsiya nuqtai nazaridan chalg'ituvchi bo'lishini ta'kidladi.

Vittshteyn 1800-yillardagi ishida Farrga o'xshab, "kapital-tovarlar" deb ta'riflaydi. Jismoniy shaxslar butun umri davomida oladigan daromadlari, bu ularning yashashi va ta'lim olishi uchun sarflangan xarajatlar yig'indisi ekanligini da'vo qiladi.

Vittshteyn 1800-yillarda uning inson kapitaliga ta'rifi 1960-yillarda inson kapitali nazariyasining kashshoflariga olib keldi. Marshall mehnatni inson kapitali tushunchasi bilan sinonim sifatida baholadi; "Sizning eng qimmat sarmoyangiz" - uning ta'kidlashicha, "bu odamlarga qilingan sarmoyadir". Marshall (1890); Farr va Pettiga huddi shunday, inson kapitali nafaqat shaxsning farovonligini o'z ichiga oladi balki mamlakat farovonligini oshirish vositasi sifatida qaraydi.

Inson kapitalini rivojlanganligi mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyat a'zolarining turmush darajasini oshirishga e'tibor qaratilganligi aholi real daromadlarini o'sishiga, turmush sharoitining sifatini oshirishga bog'liqdir. "...biz amalga oshirayotgan iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy o'zgarishlarning samarasi, birinchi navbatda, aholining moddiy ahvoli va farovonligini, uning hayot darajasi va sifatini oshirishga qay darajada ta'sir ko'rsatayotgani bilan o'lchanadi". Shu nuqtai nazardan mamlakatimiz aholisi turmush sifatining oshishi bevosita inson kapitalini qanchalik darajada rivojlanganligiga bog'liqdir.

Mamlakatimizda "inson kapitalini rivojlantirish va buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etish", xususan, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, aholining salomatligini mustahkamlash va munosib mehnat sharoitlarini yaratish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasida "inson kapitalini rivojlantirish asosiy maqsad va mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi darajasi va innovatsion jihatdan taraqqiy etganini belgilovchi asosiy omil sifatida belgilanib, 2030-yilga borib Global innovatsion indeks reytingi bo'yicha jahonning 50 ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish, ta'limning barcha darajalarida sifati va qamrovini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimining ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlariga moslashuvchanligini ta'minlash



shuningdek, innovatsiyalarni keng joriy etish uchun shart-sharoitlarni yaratish” kabi vazifalar belgilangan. Shu bilan birga, “Prezidentning ilm-fan namoyondalari bilan muloqoti davomida ilmiy asoslangan tajriba asosida kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish vazifasining muhimligi” ta'kidlandi. Ushbu vazifalarni samarali ijro etishda inson kapitali va uning tarkibiy unsurlarini baholash tizimini takomillashtirish, barcha sohalarni innovatsion shakllanishiga inson kapitalining ta'sirining ilmiy-uslubiy asoslarini tadqiq etish, respublikada inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha imkoniyatlarni aniqlash va takomillashtirish kabi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda har qanday davlatda mamlakatning o'ziga xos va yetarlicha samarali bo'lgan milliy innovatsion tizimini barro qilish muhim vazifa hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, innovatsion taraqqiyotning yangi modeliga o'tish birdaniga to'planib qolgan salbiy jarayonlarni yengib o'tish va iqtisodiy o'sishni tezlashtirish imkonini bermaydi. Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning yangi innovatsion modelini qaror tortirishda innovatsion salohiyatdan foydalanishni jadallashtirish, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish, innovatsion xo'jalik tizimlarining samarali faoliyat ko'rsatishiga imkon beruvchi yangi institutsional tuzilmalarni yaratishga alohida urg'u berish talab qilinadi. Hozirda jahonda biznes, fan va davlatning o'zaro aloqalariga asoslangan innovatsion taraqqiyotning to'rtta modeli mavjud bo'lib, mamlakatlar muayyan shart-sharoit va omillarni hisobga olgan holda, u yoki bu modelni tanlashni ma'qul ko'radilar. Mavjud innovatsion taraqqiyot modellarining afzalliklarini taqqoslash va ularni o'rganish asosida universitet, sanoat va davlatning o'zaro munosabatlariga asoslanuvchi, “uchlamchi spiral” modeli katta qiziqish uyg'otadi. Mazkur modelda innovatsion iqtisodiyot asoslarini shakllantirishda universitetlarga katta e'tibor qaratiladi

Inson kapitali bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalarining rang-barangligi iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishda inson kapitalining o'rnini baholash borasida amalga oshirilayotgan tadqiqot ishlari sifati va ko'lamiga ta'sir ko'rsatadi.

Inson kapitalining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashdagi o'rni borasida amalga oshirilgan tadqiqotlarning birinchi guruhiga inson kapitalining ishlab chiqarish hajmiga ta'sir ko'rsatish ko'lamiga va sifati asoslab berilgan ilmiy izlanishlar mansub bo'lib, bunday tadqiqotlar sirasiga Romer, 1990; Barro, 1991; Temrl, 1999; Kruger va Lindal, 2001; De la Fuente va Dominik, 2005 kabi olimlarning asarlarini kiritish mumkin. Bu o'rinda aksariyat tadqiqotlarda inson kapitali va iqtisodiy o'sish o'rtasida muhim ijobiy bog'liqlik mavjudligi tasdiqlanganligi yaqqol ko'zga tashlanadi (R. Solou 1992). Ikkinchi guruh tadqiqotlari sirasiga inson kapitalining innovatsion rivojlanishga (chiziqli bo'lmagan va bilvosita) to'g'ridan-to'g'ri statistik ta'sirini ochib berishga xizmat qilgan Barro, Kalayzidakis va Xodjo kabi olimlarning izlanish natijalarini kiritish mumkin.

Inson kapitalini rivojlantirishdan asosiy maqsad quyidagilardan iborat:

- inson kapitalining konseptual asoslarini tadqiq etishni rivojlantirish;
- inson kapitalning mazmuni va tarkibiy elementlariga doir nazariy mulohazalarni umumlashtirish;
- tarixiy taraqqiyot davomida inson kapitali evolyutsiyasini tahlil qilish orqali uning turli davrlardagi g'oyaviy asoslarini ochib berish.



Inson kapitaliga doir tadqiqot natijalaridan O'zbekiston Liberal demokratik partiyasi faoliyatida, innovatsion izlanish markazlari, madaniy - ma'rifiy muassasalar, mahalla, oila markazlari, intellektual salohiyatni o'stirish bilan shug'ullanuvchi Yoshlar ijodi markazlari, ma'naviy-madaniy tarbiya o'choqlari kundalik faoliyatlarida foydalanish mumkin.

References:

1. Инновацион ғояларни илм-фан ва саноатга кенг татбиқ этиш – ислохотлар самарадорлигининг бош мезони / Халқ сўзи, № 107 (7337). 25 май 2019 йил Becker, Gary. Investment In Human Capital. A. Theoretical Analysis // Journal of Political Economy, 1962. Vol. 70 (5, Part 2, Supplement). Pp.9-49
2. Chultz Theadore W.investment In Human Capital // The American Economic Review, 1961. Vol.51(1), pp.1-17.
3. Bowen, H.r. Investment Learning San Francisco . Jossey- Bass , 1977.p.507.
4. Blaug M. The empirical status of human capital theory: A slightly jaundiced survey/ Journal of ecomic literature 1976, September 1, 14(3): pp.827 -55.
5. Jacob Minser: Investment In Human Capital and Personal Income Disturbution // Journal of Political Economy, 66. August 1958.pp.281-302.
6. Mincer J, Polochek S. Family Investments in Human Capital: Earnings of Woman // Journal of Political Economy Volume 82 Number 2. Part II March/aprel 1974 [Http://www.nber.org](http://www.nber.org)
7. <http://www.oecdbetterlifeindex.org/> Организация по экономическому сотрудничеству и развитию (OECD) (Better Life Index).
8. The Legatum Prosperity Index TM 2020. Fourteenth edition. 2020 The Legatum Institute Foundation. www.legatum.org. The Legatum Prosperity Index (2020). – P. –17. <http://www.prosperity.com>, www.li.com.
9. Lange, Glenn-Marie, Quentin Wodon, and Kevin Carey, eds. 2018. The Changing Wealth of Nations 2018: Building a Sustainable Future. Washington, DC: World Bank. doi:10.1596/978-1-4648-1046-6.
10. Махмудов Шерали Хусанович. Инновацион иқтисодиётни шакллантиришда инсон капиталини такрор ҳосил қилиш ва ундан самарали фойдаланиш йўллари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, Гулистон – 2022
11. Nuriddin Akramkulovich Saidkulov (2020). THE IMPACT OF THE REFORMS ON THE POLITICAL CULTURE OF YOUTH. Academic research in educational sciences, (1), 152-156. doi: 10.24411/2181-1385-2020-00022
12. Akramovich, Saidkulov N. "The Effect of Dynamic Changes in Society on the Political Culture of Youth." European Journal of Humanities and Educational Advancements, vol. 1, no. 2, 2020, pp. 7-9.
13. Akramkulovich, S. N. (2020). Important Tasks for the Development of Youth Political Culture: Problems and Solutions. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 7(5), 494-497.
14. Akramkulovich, S. N. (2020). International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding.



15. Саидкулов, Н. А. (2020). ЁШЛАР СИЁСИЙ МАДАНИЯТИНИ КРЕАТИВ ЁНДАШУВ АСОСИДА РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ КОНСЕНСУС, 1(1).
16. Akramkulovich, S. N. (2020). METADOLOGICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF YOUTH POLITICAL CULTURE ON THE BASIS OF INNOVATIVE-CREATIVE APPROACH. Восточно-европейский научный журнал, (5-5 (57)), 39-42.
17. Saidkulov, N. A. (2020). The Impact of the Reforms on the Political Culture of Youth. Academic research in educational sciences, (1), 152-15
18. Akramovich, S. N. (2020). The Effect of Dynamic Changes in Society on the Political Culture of Youth. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 1(2), 7-9.
19. Akramkulovich, S. N. (2020). Important Tasks for the Development of Youth Political Culture: Problems and Solutions. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 7(5), 494-497.
20. Саидкулов, Н. А. (2020). ЁШЛАР СИЁСИЙ МАДАНИЯТИНИ КРЕАТИВ ЁНДАШУВ АСОСИДА РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ КОНСЕНСУС, 1(1).
21. Akramkulovich, S. N. (2023). HISTORICAL ROOTS OF THE FORMATION OF EASTERN POLITICAL THOUGHT. World Bulletin of Social Sciences, 19, 173-176.
22. Saidkulov, N. ISSUES OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF YOUTH POLITICAL CULTURE IN THE NEW RECONCILIATION PERIOD OF UZBEKISTAN.
23. Akramkulovich, S. N. (2023). JAMIYAT SIYOSIY TAFAKKURI SHAKLLANISHINING TARIXIY ILDIZLARI. SIYOSATSHUNOSLIK, HUQUQ VA XALQARO MUNOSABATLAR JURNALI, 2(3), 1-
24. Акрамкулович, С. Н. . (2023). ЖАМИЯТ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ЁШЛАР СИЁСИЙ МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. Miasto Przyszłości, 36, 455–460.
25. Саидкулов Нуриддин Акрамкулович,. (2023). ЖАМИЯТ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ОММАВИЙ АХБОРОТ ВОСИТАЛАРИНИНГ ЎРНИ. Actual Problems in Higher Education in the Era of Globalization: International Scientific and Practical Conference, 48–53.